

## **EFIR MOYLARI VA ULARNI TIBBIYOTDA QO`LLANILISHI**

*Zoirova Navro'za Saxomiddin qizi*

*Termiz davlat universiteti talabasi*

**Anotatsiya:** Bizga ma'lumki o'simliklar dunyosi turli hil organik moddalardan iborat. Bu moddalar o'simliklarning o'sish jarayonida ma'lum vazifani bajaradi. O'simliklardan esa xalq ho'jaligining turli sohalarida keng qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan: oziqovqat sanoatida, qurilishda, qurilish materiallari ishlab chiqarishda, tabobatda dorivor preparatlar sifatida qo'llaniladi.

**Kalit so'zlar:** moy, lasonlar, Sovuq va issiq kompresslar, Vanna, Efir moy, Tib qonunlari

Biz bilamizki o'simliklar dunyosi turli hil organik moddalardan iborat. Bu moddalar o'simliklarning o'sish jarayonida ma'lum vazifani bajaradi. O'simliklardan esa xalq ho'jaligida oziq-ovqat, qurilish materiallari va tabobatda dorivor preparatlar sifatida qo'llaniladi. O'zbekistonda o'sadigan o'simliklar dunyosi o'zgacha xususiyatlari va shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Respublikamiz florasining juda ko'p qismini dorivor o'simliklar tashkil etadi. Ularning aksariyati haqida Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" deb nomlangan asarida keng ko'lamda yoritib yozib o'tilgan. Aromatrapiya asosi bu efir moylaridir. Efir moylari biologik faol moddalar bo'lib, bir tomondan tabiatdan olingan akumulirlangan energiya manbaidir va u kishi sog'lig'iga ta'sir qila oladi, hamda uning nozik energetik qavatlariga ta'sir qiladi. Hozirgi kunda o'simliklardagi xushbo'y moddalarga talab ortib bormoqda. Shu sababli hushbo'y o'simliklarni yig'ish va undan oqilona foydalanishga katta etibor qaratilmoqda.

Efir moylari o'simliklardan quyidagi yo'llar bilan olinadi: suv bug'i yordamida haydash; past tralarda qaynaydigan erituvchilar yoki hidsiz toza yog'

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

(mol yog'i) bilan ekstratsiya qilish (buni anfleraj usulida olish deb ham ataladi); presslash orqali. Efir moylari sanoatda keng qo'llanadi. Ulardan atirupa, sovun ishlab chiqarishda, tish pastalari, oziqovkat essensiyalari tayyorlashda, tamakini xushbo'y qilishda, tibbiyotda (qalampir va evkalipt moylaridan) foydalaniladi. Efir moylari kimyo sanoatida, farmatsevtikada ham qo'llanadi. Pinendan kamfora sintez qilinadi, daraxt moyi skipidar lok va bo'yoq ishlab chiqarishda erituvchi sifatida ishlatiladi. Nozik organik sintez texnologiyasi Efir moylarining sintetik analoglari ham bor.

Matseratsiya usuli efir moylarining yog'larda erish xossasiga asoslangan. Shuning uchun bu usul qizdirilganda tarkibiy qismi o'zgarib ketadigan efir moylari olishda qo'llaniladi. Tarkibida efir moyi bo'lgan gullar maxsus idishga solinib, ustiga zaytun moyi quyiladi va 50°C gacha qizdiriladi. Natijada mahsulotdagi efir moyi zaytun moyiga o'tadi. Gullardan tozalangan moy maxsus maqsadlar uchun ishlatiladi.

Anfleraj (yutish) usuli efir moylarining qattiq moylarda yutilishiga asoslangan. Bu usul bilan, odatda, gullardan yuqori sifatli va qizdirilganda buziladigan efir moylari olinadi. Yutilish jarayoni oddiy haroratda olib boriladi, shuning uchun efir moyi tarkibi buzilmay, sifati saqlanib qoladi. Bir necha kun davom etgan yutilish jarayonida gullar o'zidan efir moyi ajratib chiqarishni davom ettirishi mumkin.

Bu usul bilan efir moylari olish uchun bo'yi va eni 50x50 sm bo'lgan qalin oyna 5 sm qalinlikdagi maxsus ramkaga o'rnatiladi va ikki tonioniga yuqori sifatli yog' aralashmasi (3 qism cho'chqa yog'i va 2 qism mol yog'i) yupqa qilib surtiladi. Yog' ustiga gullar yoki toj barglar qo'yiladi. Keyin ramalar maxsus taxlarga o'rnatiladi va ustidagi gullar har kuni yangilanib turiladi. Plantatsiyadagi o'simliklarning gullash davri 1—2 haftadan ortiq davom etadigan bo'lsa, oy na list idagi yog' h a m yangilanadi. Sh u n d ay qilib, xushbo'y yog' tayyorlanadi. Bu yog'lar esa maxsus maqsadlar uchun ishlatiladi. Efir moylarini faollashtirilgan ko'mirga yuttirib olish usuli ham ishlab chiqilgan.

Presslash usuli bilan tarkibida ko'p miqdorda efir moyi bo'ladigan

mahsulotlar (limon, apelsin, pomeres, bergomot va boshqa o'simliklarning mevalari) dan olinadi. Bunday o'simlik mevalari po'stini qo'l bilan siqilganda ham ma'lum miqdorda efir moyi ajraladi. Agar efir moyi turgan joylarni tishli disk bilan yorib, meva po'sti siqilgudek bo'lsa, ko'proq moy chiqadi. Efir moyi zavodlarda ham shu usul bilan olinadi.

Ekstraksiya usuli efir moylarining ko'pchilik organik erituvchilarda yaxshi erish xususiyatiga asoslangan. Efir moyi o'simlik organlaridan past haroratda yengil uchuvchan organik erituvchi yordamida ajratib olinadi. So'ngra organik erituvchi haydalib, efir moyi ajratib olinadi.

O'rash: Issiq suvli (2litr) idishga 10 tomchi efir moyi tomiziladi. Bu aralashmaga prostina (adyol) namlanadi, siqiladi va tezda tanaga o'raladi. Suv harorati 25-30°C, muolaja vaqti 60 minutdan ko'p emas. Davolash meyorlari 15-20 marta o'ralish. Dorivor ta'siri: tetiklaydilar, tinchlantiruvchi, ter haydovchi, shamollashni oldini oluvchi (shish oldini oluvchi) Ko'rsatkichlari: nevrozlar, chegarali arterial gipertenziya, I darajali gipertonik kasallar, semirish, qattiq lat yeganlar-tayanch harakat aparatlari lat yeganda. Qo'llash ta'qiqlanadi: II-III darajali qon aylanishdagi yetishmovchiliklar, miokarditlar, ishemik yurak kasallari, teri kasallari.

Sochni mustahkamlash uchun muloyim shampunga bir necha tomchi aromatik moy qo'shish taklif etiladi, xuddi shunday kondisioner yoki suv bilan yuvilganda unga qo'shiladi. Xoxlagan turdagi soch va uning holatiga qarab jojoba moyiga tomizib aromatik moyi qo'llash mumkin. Bu aralashma bosh terisiga surkaladi va 1-2 soat issiq sochiq bilan o'rab boshni saqlanadi. Rozmarin moyi (qora sochlarga) va moychechak moyi (och rangli sochlarga) surkalsa u tirik sochlarni mustahkamlaydi va o'stiradi, lavanda esa bit va kanadan qutqaradi, bergamot va choy daraxti qozg'oqdan davolaydi.

Kompresslar: Aromatik vannalarning mahalliy turlaridan biri kompressdir. 300-400 ml issiq suvga 1-6 tomchi efir moy qo'shiladi, bu aralashmaga paxtali to'qima yoki mato botiriladi, ozgina siqiladi va kerakli joyga teri ustiga qo'yiladi, 2 soat ushlab turiladi. To'qima yoki mushaklar og'rig'iga qarshi kompresslar kasal

chiday oladigan darajada bo'lishi kerak. Kompres ustidan folga bilan va issiq tutuvchi mato bilan yopiladi. Bosh og'rig'i kasallarida, paylar shikastlanganda yoki bo'g'imlarda sovuq kompresslar qo'llaniladi. Shu sababli 6-10 efir tomchisi qo'shilganda 0, 5l muzli suv qo'shiladi. Kompres tana haroratiga yetguncha ushlab turiladi.

Tibbiyotda ishlatiluvch turli xil massaj kremlarini tayyorlashda, dorivor vositalar ishlab chiqarishda, sochni mustahkamlash uchun shampunlarga muloyim berishda, ishlab chiqarishda xom-ashyoga efir moylaridan foydalanib ishlar chiqarish taklif etiladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi Toshkent Farmasevtika insituti Toshkent Davlat Agrar universiteti O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, va D.Mustafakulov "Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi va ekologiya" Toshkent -2020 yil (196-201 betlar).
2. "Dorivor va Ozuqabop o'simliklar plantatsiyalarini tashkil etish bo'yicha" yo'riqnoma. Toshkent-2005 (70-72 betlar).
3. H.X.Xolmatov, O'.A.Ahmedov, "Farmakognoziya" I-qism Toshkent –2008 yil (271-275 betlar).
4. L.X.Yoziyev, N.Z. Arabova [Dorivor O'simliklar] Toshkent 2017,(92-93 betlar).